



Mahbuba TILAVOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Professor O.Rashidov taqrizi asosida

SAMARQANDNING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI VA ZIRABULOQ JANGINING OQIBATLARI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot 1868-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan Zarafshon vodiysiga amalga oshirilgan harbiy yurishning strategik, taktik va siyosiy jihatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada Samarqand shahrining bosib olinishi, Cho'ponota va Zirabuloq janglaridagi harbiy harakatlar dinamikasi hamda mahalliy aholining imperiya qo'shinlariga qarshi ko'rsatgan qarshiligi birlamchi manbalar va tarixiy hujjatlar asosida o'rganiladi. Tadqiqot davomida Buxoro amirligi qo'shinlarining mag'lubiyatiga sabab bo'lgan omillar – markaziy boshqaruvdagi inqiroz, harbiy-texnik qoloqlik va strategik xatolar ochib beriladi. Shuningdek, Zarafshon okrugining tashkil etilishi va 1868-yilgi sulh shartnomasining amirlik suverenitetiga ta'siri, mintaqaning geosiyosiy maqomidagi o'zgarishlar ilmiy baholanadi. Tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, ushbu kompaniya nafaqat hududiy yo'qotish, balki mintaqadagi an'anaviy davlatchilik tizimining transformatsiyasiga olib kelgan burilish nuqtasi bo'ldi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, Konstantin Kaufman, Samarqand mudofaasi, Cho'ponota jangi, Zirabuloq jangi, Zarafshon okrugi, amir Muzaffar, harbiy strategiya, mustamlaka boshqaruvi.

ЗАВОЕВАНИЕ САМАРКАНДА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ И ПОСЛЕДСТВИЯ ЗИРАБУЛАКСКОГО СРАЖЕНИЯ

Аннотация

Данное исследование посвящено анализу стратегических, тактических и политических аспектов военной кампании Российской империи в Зеравшанской долине в 1868 году. В статье на основе первоисточников и исторических документов рассматриваются захват Самарканда, динамика боевых действий при Чупан-ате и Зирабулаке, а также сопротивление местного населения имперским войскам. В ходе исследования раскрываются факторы, приведшие к поражению войск Бухарского эмирата: кризис центрального управления, военно-техническая отсталость и стратегические просчеты. Также дается научная оценка созданию Зеравшанского округа и влиянию мирного договора 1868 года на суверенитет эмирата и изменения геополитического статуса региона. Выводы исследования показывают, что данная кампания стала поворотным моментом, приведшим не только к территориальным потерям, но и к трансформации традиционной системы государственности в регионе.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Российская империя, Константин Кауфман, оборона Самарканда, сражение при Чупан-ате, битва при Зирабулаке, Зеравшанский округ, эмир Музаффар, военная стратегия, колониальное управление.

THE CONQUEST OF SAMARKAND BY THE RUSSIAN EMPIRE AND THE CONSEQUENCES OF THE ZIRABULOQ BATTLE

Annotation

This study is dedicated to analyzing the strategic, tactical, and political aspects of the Russian Empire's military campaign in the Zarafshan Valley in 1868. The article examines the capture of Samarkand, the dynamics of military actions at the battles of Chupan-Ata and Zirabuloq, and the resistance of the local population against imperial troops, based on primary sources and historical documents. The research reveals the factors contributing to the defeat of the Bukhara Emirate's forces: the crisis in central administration, military-technical backwardness, and strategic errors. Furthermore, scientific assessment is provided regarding the establishment of the Zarafshan District and the impact of the 1868 peace treaty on the emirate's sovereignty and the shift in the region's geopolitical status. The study concludes that this campaign served as a turning point, leading not only to territorial losses but also to the transformation of the traditional statehood system in the region.

Keywords: Bukhara Emirate, Russian Empire, Konstantin Kaufman, Defense of Samarkand, Battle of Chupan-Ata, Battle of Zirabuloq, Zarafshan District, Emir Muzaffar, military strategy, colonial administration.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo mintaqasi yirik geosiyosiy o'zgarishlar markaziga aylandi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi ekspansiyasi 1860-yillarning o'rtalariga kelib hal qiluvchi pallasiga kirdi. 1864–1866-yillarda Qo'qon xonligi hududlarining bir qismi va Buxoro amirligining shimoliy qal'alari (Jizzax, O'ratepa, Yangiqo'rg'on) egallangach, navbatdagi strategik nishon sifatida mintaqaning iqtisodiy va madaniy yuragi bo'lgan Zarafshon vodiysi tanlandi. Ushbu davrda Buxoro amirligi, garchi mintaqadagi yirik siyosiy kuch hisoblansa-da, ichki nizolar va harbiy-texnik qoloqlik tufayli tashqi tajovuzga nisbatan zaif holatda edi. 1868-yilgi harbiy kompaniya nafaqat ikki davlat o'rtasidagi kuchlar muvozanatini, balki butun

Turkistonning keyingi siyosiy taqdirini belgilab bergan tarixiy hodisa hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – zamondoshlar guvohliliklari va tarixiy manbalar asosida Samarqandning bosib olinishi, Zirabuloq jangi va uning oqibatlarini kompleks tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda harbiy harakatlar xronologiyasi bilan bir qatorda, diplomatik yozishmalar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ham qamrab olinadi.

Adabiyotlar sharhi. Mavzu yuzasidan mavjud ilmiy adabiyotlarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga Rossiya imperiyasi harbiylari va tarixchilari (L. Simonova, M. Terentyev, N. Koldevin, M. Lyko) tomonidan yozilgan asarlar kiradi. Ularda, asosan, imperiya

qo'shinlarining harbiy harakatlari, statistik ma'lumotlar va jang tafsilotlari batafsil bayon etilgan bo'lsa-da, voqealar mustamlaka nuqtai nazaridan yoritilgan [1; 132-b.], [10; 193-b.]. Ikkinchi guruhni mahalliy mualliflar (Ahmad Donish, Abdulazim Somiy) asarlari tashkil etadi. Bu manbalar Buxoro amirligining ichki ahvoli, saroydagi ziddiyatlar va mag'lubiyatning ijtimoiy sabablarini ochib berishi bilan qimmatlidir [22; 39-b.]. Uchinchi guruhga esa mustaqillik davrida mavzuga oid asarlar yozgan tarixchilar (H. Ziyoyev, R. Xoliqova, A. Odilov)ning tadqiqotlari mansub bo'lib, ular voqealarni milliy-ozodlik harakati va xolis tarixiy tahlil prizmasidan o'rganadilar [20; 282-b.], [18; 45-b.]. Manbashunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, imperiya davri manbalarida raqamlar va sanalar aniq keltirilgan bo'lsa-da, mahalliy aholining qarshilik ko'rsatish motivlari va tinch aholiga nisbatan zo'rvonliklar ko'pincha xaspo'shlangan.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, xronologik rekonstruksiya, manbashunoslik tanqidi va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Manbalarining ishonchlik darajasini belgilashda bevosita mazkur jarayonlarning ishtirokchilari yozgan kundaliklarga alohida ahamiyat qaratildi va ular tanqidiy ruhda o'rganildi. Faktlar qarama-qarshiligi yuzaga kelganda (masalan, qo'shin soni masalasida), turli tomonlarning ma'lumotlari qiyosiy o'rganilib, o'rtacha mezon va mantiqiy tahlil asosida xulosa chiqarildi.

Natijalar. 1867-yil 2-iyulda Turkiston general-gubernatori etib tayinlangan general-adyutant K.P. Kaufman dastlabki bosqichda Buxoro amirligini jangsiz taslim etish strategiyasini qo'llashga urindi. 1867-yilning kuzi va 1868-yilning bahori oralig'ida amir Muzaffar bilan olib borilgan diplomatik yozishmalar samarasiz yakunlandi. Avaz Muhammad Attor Muhammadiyning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro amiri K. Kaufmanning talablarini davlat suverenitetiga tahdid deb baholab, keskin rad javobini bergan. Amir o'z maktubida Rossiya amaldorlarining va'dalari beqarorligini, har bir yangi rahbar yangi va og'irroq shartlar qo'yayotganini ta'kidlab, avvalgi kelishuvlarni buzish niyati yo'qligini, ammo yangi bosimlar sabr kosasini to'ldirishi mumkinligini ma'lum qilgan [2].

Aslida, K. Kaufmanning muzokaralarga kirishishi vaqtdan yutish taktikasining bir qismi edi. U kuz va qish mavsumida harbiy harakatlar olib borishni rejalashtirmagan bo'lib, asosiy maqsad siyosiy keskinlikni saqlab turish va bahorgi yurish uchun zamin hozirlashdan iborat edi. Ushbu davrda Sirdaryo viloyatida keng ko'lamli harbiy infratuzilma yaratildi: 17 ta yangi harbiy istehkom barpo etilib, ularga 11 ta piyoda batalyon, 32 ta dala zambaraklari, 380 ta qurol va 210 nafar kazak joylashtirildi. Bu esa imperiyaning keng ko'lamli tajovuzga puxta tayyorgarlik ko'rganini tasdiqlaydi.

1868-yil aprel oyida Rossiya qo'shinlari amaliy harakatlarga o'tdi. 30-aprel kuni Jizzax yaqinidagi Yangiqo'rg'on istehkomidan yo'lga chiqqan K.P. Kaufman boshchiligidagi ekspeditsion korpus tarkibi 25 rota piyoda (taxminan 3500 askar), 7 yuzlik kazak otliqlari va 16 ta artilleriya qurolidan iborat edi [3], [4]. Ushbu qo'shin 1-may kuni erta tongda, soat 04:00 atrofida Toshko'prik mavzesidan Samarqand yo'nalishida harakatni boshladi va tushga yaqin Zarafshon daryosi sohiliga, Cho'ponota tepaliklari qarshisiga yetib keldi [14].

Samarqand mudofaasi uchun mahalliy aholi va amirlik qo'shinlari safarbar etilgan edi. Manbalarda keltirilishicha, shahar himoyasida 12 ming piyoda sarboz, 3 ming otliq sipohiy va 40 ga yaqin to'pga ega muntazam qo'shin hamda turli hududlardan yig'ilgan 100 mingga yaqin xalq lashkarlari (ko'ngillilar) ishtirok etgan. Biroq, bu ulkan son harbiy tayyorgarlik va qurollanish darajasidagi sifat farqini qoplay olmasdi. Amirlik qo'shinlarining aksariyati oddiy mehnat

qurollari, pilta miltiq va sovuq qurollar bilan qurollangan edi [5].

1868-yil 1-may kuni soat 14:30 atrofida rus qo'shinlari Zarafshon daryosini kechib o'tishni boshladi. Dastlab Buxoro artilleriyasi va merganlari dushmani o'qqa tutib, jiddiy qarshilik ko'rsatdi. Biroq rus qo'mondonligi taktik hiyla ishlatib, daryoning kutilmagan joylaridan kechib o'tish va qirg'oqdagi istehkomlarga tezkor hujum uyushtirish orqali vaziyatni o'zgartirdi. Bu manyovr Buxoro qo'shinlari orasida parokandalikni keltirib chiqardi [7]. Natijada, amirlik armiyasi nafaqat pozitsiyalarini, balki deyarli barcha artilleriyasini (21 ta zambarak) tashlab chekinishga majbur bo'ldi [8].

Abdulazim Somiyning yozishicha, mudofaa jarayonida xiyonat va ichki ziddiyatlar ham hal qiluvchi rol o'ynagan. Samarqanddagi eronliklar jamoasi vakillari rus qo'mondonligiga maxfiy maktub yo'llab, shahar darvozalarini ochib berishga va'da qilganlar [10]. 2-may kuni shahar oqsoqollari va ruhoniylari K.P. Kaufmanga taslim bo'lish haqida murojaat qildilar va Samarqand jangsiz egallandi [11].

Samarqand egallangach, rus qo'mondonligi Zarafshon vodiysidagi strategik nazoratni to'liq o'z qo'lga olishga kirishdi. 11-may kuni polkovnik Abramov boshchiligidagi jazo otryadi (6 rota piyoda, 2 yuzlik kazak va artilleriya) Samarqanddan 32 verst masofada joylashgan Urgut shahrini egallash uchun yuborildi va shahar bo'ysundirildi [15].

Navbatdagi nishon Buxoro yo'lidagi muhim tayanch nuqtasi – Kattaqo'rg'on qal'asi edi. 16-may kuni general-mayor Golovachev boshchiligidagi yirik qo'shin (14 rota, 3 yuzlik, 8 to'p) Kattaqo'rg'onga yurish boshladi. Mahalliy aholining o'z beklari zulmidan noroziligi va amirlikdagi ichki parokandalik bu yerda ham yaqqol namoyon bo'ldi. Kattaqo'rg'on begi Muhammad Umarbiy dodxoh va urug' boshliqlari rus qo'shinlari yaqinlashishi bilan shaharni tashlab qochdilar. Natijada, 17-may kuni shahar oqsoqollari taslim bo'lish istagini bildirdilar va 18-mayda rus qo'shinlari Kattaqo'rg'onga jangsiz kirdilar [16]. Xuddi shunday holat Payshanba va Xatirchi hududlarida ham kuzatildi [6].

Amir Muzaffar o'zining so'nggi kuchlarini to'plab, hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rdi. 1868-yil 2-iyunda Zirabuloq tepaliklarida sodir bo'lgan jang kampaniyaning eng qonli va hal qiluvchi to'qnashuvi bo'ldi. Buxoro tomoni 6 ming piyoda sarboz, 15 ming otliq va minglab ko'ngillilarni hamda 14 ta to'pni maydonga olib chiqdi. Rossiya imperiyasi tomonidan esa general Kaufman boshchiligidagi 18 rota piyoda, 6 yuzlik kazak va 14 ta to'p safarbar etildi [16].

Jang davomida polkovnik Pistolkors boshchiligidagi rus bo'linalari Buxoro qo'shinlarining qanotini aylanib o'tib, kutilmagan zarba berdi. Rus artilleriyasi va raketa batareyalarining aniq o'ti amirlik otliqlarini sarosimaga soldi [13]. Buxoro qo'shinlari dastlabki bosqichda ustunlikka erishib, rus armiyasini qiyin ahvolga solib qo'ygan bo'lsa-da, amirlik sarkardasi Usmon to'qsaboning tushunarsiz chekinish buyrug'i vaziyatni butunlay o'zgartirib yubordi [4]. Bu "xiyonat" yoki taktik xato natijasida amir qo'shini tor-mor etildi. Jang maydonida mingga yaqin buxorolik askarning jasadi qoldi, amirlikning harbiy salohiyati butunlay sindirildi [17].

Asosiy rus kuchlarining Zirabuloqda bandligidan foydalangan Samarqand aholisi hamda Kitob va Shahrisabz beklari (Jo'rabek, Bobobek) shaharni ozod qilish uchun qo'zg'olon ko'tardilar. Samarqand arkida qoldirilgan mayor Shtempel boshchiligidagi garnizon (658 kishi: 4 rota piyoda, 1 rota saypor, 2 ta to'p) 55 mingdan ortiq qo'zg'olonchilar tomonidan qamalga olindi [23]. Sakkiz kun davom etgan qamal davomida rus garnizoni og'ir talofat ko'rdi [24]. Zirabuloqdagi g'alabadan so'ng ortga qaytgan K. Kaufman qo'shinlari 7-iyun kuni shaharga kirib, qamalni yorib o'tdi.

Isyon bostirilgach, imperiya ma'muriyati shafqatsiz jazo choralarini qo'lladi. Shahar uch kun davomida askarlar

ixtiyoriga talon-toroj qilish uchun topshirildi. Qo'zg'olon rahbarlarining bir qismi osib o'ldirildi, boshqalari otib tashlandi [19]. Shahar bozorlari va turar-joy mavzolari vayron qilindi [12].

Muhokama. Tarixiy tahlillar Buxoro amirligining mag'lubiyati tasodifiy emas, balki tizimli inqiroz natijasi ekanligini ko'rsatadi. Ahmad Donishning ta'kidlashicha, amir Muzaffar dushmanni harbiy-texnik salohiyatini to'g'ri baholay olmagan va "Agar otga minsak, to'g'ri Moskov ustiga boramiz" degan xomxayol bilan yashagan [22]. Qo'shin tarkibining asosiy qismi harbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan, tayoq va sovuq qurollar bilan qurollangan oddiy fuqarolardan iborat edi [22]. Ta'minot tizimidagi uzilishlar askarlarning ochlikdan aziyat chekishiga va jang maydonini tashlab ketishiga olib kelgan [22].

1868-yil 23-iyunda imzolangan sulh shartnomasi va uning maxfiy ilovalariga ko'ra, Buxoro amirligi 125 ming tilla (500 ming rubl) miqdorida tovon to'lash majburiyatini oldi. Eng muhimi, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon vodiysining yuqori qismi Rossiya imperiyasi tarkibiga o'tdi va bu yerda Zarafshon okrugi tashkil etildi [21]. Shartnoma

shartlari amirlikni nafaqat hududiy, balki iqtisodiy jihatdan ham imperiyaga qaram qilib qo'ydi, chunki amirlikning asosiy suv manbai bo'lgan Zarafshon daryosining bosh qismi ruslar nazoratiga o'tgan edi [18]. Garchi dastlabki kelishuvda tovon to'langach, Samarqandning qaytarilishi nazarda tutilgan bo'lsa-da, general K. Kaufman imperatorni shaharni qaytarmaslikka ko'ndirdi. 1869-yildagi elchilik missiyasining (Sayid Abdulfattoh va Ahmad Donish) bu boradagi urinishlari besamar ketdi [20].

Xulosa. 1868-yilgi harbiy yurishlar va Samarqandning bosib olinishi Markaziy Osiyo tarixida yangi davrni boshlab berdi. Buxoro amirligining mag'lubiyati o'rta asrchilik an'analarga asoslangan harbiy va davlat boshqaruvi tizimining industrial davr imperiyasi qudratiga dosh bera olmasligini isbotladi. Zarafshon vodiysining boy berilishi amirlikni siyosiy va iqtisodiy jihatdan falaj holatiga keltirib, uning protektoratga aylanish jarayonini tezlashtirdi. Rossiya imperiyasi uchun esa bu g'alaba mintaqadagi hukmronligini uzil-kesil o'rnatish va kelgusi ekspansiyalar uchun mustahkam strategik platsdarm yaratish imkonini berdi.

ADABIYOTLAR

1. Симонова (Хохрякова) Л. Рассказы о взятии Самарканда (Со слов участников дела) // Туркестанский литературный сборник в пользу прокажённых. – Санкт-Петербург, 1900.
2. Епифанова Л.М. Рукописные источники Института востоковедения Академии наук УзССР по истории Средней Азии периода присоединения к России (Бухара). – Ташкент: Наука, 1965.
3. Симонова (Хохрякова) Л. Рассказы о взятии Самарканда (Со слов участников дела) // Туркестанский литературный сборник в пользу прокажённых. – Санкт-Петербург, 1900.
4. Епифанова Л.М. Рукописные источники Института востоковедения Академии наук УзССР по истории Средней Азии периода присоединения к России (Бухара). – Ташкент: Наука, 1965.
5. Симонова (Хохрякова) Л. Рассказы о взятии Самарканда (Со слов участников дела) // Туркестанский литературный сборник в пользу прокажённых. – Санкт-Петербург, 1900.
6. Епифанова Л.М. Рукописные источники Института востоковедения Академии наук УзССР по истории Средней Азии периода присоединения к России (Бухара). – Ташкент: Наука, 1965.
7. Известия о сражении под Самаркандом и о занятии этого города // Русский инвалид. 1868, № 150.
8. Епифанова Л.М. Рукописные источники Института востоковедения Академии наук УзССР по истории Средней Азии периода присоединения к России (Бухара). – Ташкент: Наука, 1965.
9. Из воспоминаний о походе под Самарканд в 1868 году // Военный сборник. 1885, № 1.
10. Епифанова Л.М. Рукописные источники Института востоковедения Академии наук УзССР по истории Средней Азии периода присоединения к России (Бухара). – Ташкент: Наука, 1965.
11. Симонова (Хохрякова) Л. Рассказы о взятии Самарканда (Со слов участников дела) // Туркестанский литературный сборник в пользу прокажённых. – Санкт-Петербург, 1900.
12. Симонова (Хохрякова) Л. Рассказы о взятии Самарканда (Со слов участников дела) // Туркестанский литературный сборник в пользу прокажённых. – Санкт-Петербург, 1900.
13. Известия из Туркестанского военного округа // Русский инвалид. 1868, № 186.
14. Известия из Туркестанского военного округа // Военный сборник. 1868, № 7.
15. Известия из Туркестанского военного округа // Военный сборник. 1868, № 8.
16. Известия из Туркестанского военного округа // Военный сборник. 1868, № 8.
17. Терентьев М. От Ташкента до Самарканда // Русский инвалид. 1868, № 193.
18. Костенко Л. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. – Санкт-Петербург, 1871.
19. Из воспоминаний о походе под Самарканд в 1868 году // Военный сборник. 1885, № 1.
20. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлиги қарши кураш (XVIII – XX аср бошлари). – Тошкент: Шарк, 1998.
21. Исакова М. Россия империясининг Бухоро амирлиги ҳудудларини босиб олишига оид айрим мулоҳазалар // Доно Зиёева номидаги "Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари" тўплами. – Тошкент: Фан, 2022.
22. Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2014.
23. Известия из Туркестанского военного округа // Военный сборник. 1868, № 9.
24. Шубинский П. Очерки Бухары // Исторический вестник. – Санкт-Петербург, 1892, № 7.
25. Boulger D.C. Central Asian questions: Essays on Afghanistan, China, and Central Asia. – London, 1885.